

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE STUDY OF FOLKLORISMS IN UZBEK LITERATURE****Shirin Paygamova***Basic doctoral student at Fergana State University*shirinpagamova@gmail.com*Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: folklorism, mythopoetics, ethnographic folklorism, composite folklorism, folk oral art, artistic interpretation, national artistic thought, literary process.

Received: 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

Abstract: This article comprehensively covers the theoretical and practical aspects of the study of folklore in Uzbek literature. The formation of scientific concepts of folklorism in the second half of the 20th century and the beginning of the 21st century was analyzed based on a historical-dialectical approach. The terminological clarification of folklorism by Bakhodir Sarimsakov, the systematization of poetic-aesthetic criteria by Laylo Sharipova, and the results of inter-genre analysis by researchers such as Saodat Mamayusupova, Dिल्фуза Hajiyeva, F. Kurbanova, and S. Atajanov have been consistently studied within the framework of modern folklorism studies. The study assessed the artistic reinterpretation of folklore elements - motifs, images, archetypes, rituals, proverbs, sayings, folk speech structures - in the process of their transition to written literature as creative synthesis, poetic modification, and rhythmic-compositional renewal. According to the results, it was concluded that folklorism was formed in Uzbek literature not only as an element of artistic decoration, but also as a central artistic category that renews national artistic thinking and combines the folk spirit with the modern poetic system.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA FOLKLORIZMLAR TADQIQINING NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLARI**Shirin Payg'amova***Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*shirinpagamova@gmail.com

*Farg'ona, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: folklorizm, mifopoetika, etnografik folklorizm, kompozitsion folklorizm, xalq og'zaki ijodi, badiiy talqin, milliy badiiy tafakkur, adabiy jarayon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida folklorizm tadqiqining nazariy va amaliy yo'nalishlari kompleks tarzda yoritildi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida folklorizmga oid ilmiy konsepsiyalarning shakllanish tarixiy-dialektik yondashuv asosida tahlil qilindi. Bahodir Sarimsoqov tomonidan folklorizmga oid terminologik aniqlik berilishi, Laylo Sharipovanning poetik-estetik mezonlarni tizimlashtirishi, Saodat Mamayusupova, Dilfuza Hajiyeva, F. Kurbanova va S. Atajanov kabi tadqiqotchilarning janrlararo tahlil natijalari zamonaviy folklorizmshunoslik doirasida izchil o'rganildi. Tadqiqotda folklor unsurlarining – motiv, obraz, arxetip, marosim, maqol, matal, xalqona nutq strukturalari – yozma adabiyotga o'tish jarayonida badiiy qayta talqin qilinishi ijodiy sintez, poetik modifikatsiya va ritmik-kompozitsion yangilanish sifatida baholandi. Natijalarga ko'ra folklorizm o'zbek adabiyotida nafaqat badiiy bezak unsuri, balki milliy badiiy tafakkurni yangilovchi, xalqona ruhni zamonaviy poetik tizim bilan uyg'unlashtiruvchi markaziy badiiy kategoriya sifatida shakllangani aniqlandi.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ
ФОЛЬКЛОРИЗМОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

Ширин Пайгамова

Докторант Ферганского государственного университета

shirinpaygamova@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фольклоризм, мифопоэтика, этнографический фольклоризм, композиционный фольклоризм, народное устное творчество, художественная интерпретация, национальная художественная мысль, литературный процесс.

Аннотация: В статье всесторонне освещаются теоретические и практические аспекты изучения фольклора в узбекской литературе. Формирование научных концепций фольклоризма во второй половине XX – начале XXI века проанализировано на основе историко-диалектического подхода. Терминологическое уточнение фольклоризма Баходыром Саримсаковым, систематизация поэтико-эстетических

критериев Лайло Шариповой, а также результаты межжанрового анализа таких исследователей, как Саодат Мамаюсупова, Дильфуза Гаджиева, Ф. Курбанова, С. Атаджанов, последовательно изучаются в рамках современной фольклористики. В исследовании дана оценка художественного переосмысления фольклорных элементов – мотивов, образов, архетипов, обрядов, пословиц, поговорок, народно-речевых структур – в процессе их перехода в письменную литературу как творческого синтеза, поэтической модификации и ритмико-композиционного обновления. По результатам исследования сделан вывод о формировании фольклоризма в узбекской литературе не только как элемента художественного оформления, но и как центральной художественной категории, обновляющей национальное художественное мышление и соединяющей народный дух с современной поэтической системой.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida folklor va yozma adabiyot munosabatlari masalasi doimo markaziy ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. Xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning ildizi, tarixiy xotiraning ajralmas qismi sifatida yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiyot jarayonida muhim rol o'ynagan. Shu bois folklorizm, ya'ni xalq og'zaki ijodi unsurlarining yozma adabiyotda yangi badiiy vazifalar bilan qayta tug'ilishi hodisasi o'zbek adabiyotshunosligida barqaror ilmiy kategoriyalaridan biriga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa 1970–1980-yillarda, o'zbek adabiyotida folklorizmning ilmiy konsepsiyasi shakllana boshladi. Bu davrda folklor unsurlarining poetik vazifasi, badiiy qayta ishlanishi, yozuvchi tafakkuridagi o'rni, kompozitsion tuzilishdagi vazifalari tobora aniq ilmiy mezonlar asosida talqin qilindi. Ayniqsa Bahodir Sarimsoqovning terminologik aniqlik kiritgan nazariy qarashlari [1], Laylo Sharipovanning zamonaviy she'riyat tahlillari [2] folklorizmni o'zbek adabiyotshunosligida mustaqil ilmiy yo'nalishga aylantirdi. Keyinchalik S. Atajanov [3], D. Hajiyeva [4], F. Kurbanova [5], S. Mamayusupova [6] singari tadqiqotchilar bu ilmiy maydonni kengaytirib, folklor unsurlarining lirik, epik va dramatik turdagi turli vazifaviy jihatlarini tahlil qildilar.

Folklorizmning o'zbek adabiyotidagi o'rganilish manzarasi shuni ko'rsatadiki, bu hodisa shunchaki “folklor izlari” yoki “folklor ta'siri” sifatida talqin qilinmagan. Aksincha, u ijodkor tafakkuridagi ongli tanlov, badiiy struktura qurilishidagi muhim tamoyil, milliy ruhni yangicha

mazmunda namoyon etuvchi vosita sifatida talqin qilingan;. Xalq og‘zaki ijodiga mansub motiv, obraz, ohang, maqol, ibora va boshqalar yozma adabiyotga ko‘chganida yangi badiiy mohiyat kasb etadi. Bu jarayon adabiyotshunoslikda “ijodiy sintez”, “badiiy qayta tug‘ilish”, “badiiy modifikatsiya” kabi terminlar bilan izohlanadi.

Bahodir Sarimsoqov folklorizmning mohiyatini folklor materialining shunchaki matnga ko‘chirilishida emas, balki uning badiiy jihatdan qayta tug‘ilishida deb biladi [1.349]. Tadqiqotchiga ko‘ra, folklorizm – xalq og‘zaki ijodi unsurlarining ijodkor tomonidan qayta talqin etilib, muallifning ijodiy niyati asosida yangidan bunyod etilgan badiiy butunlikdir.

Sharipova esa folklorizmning aynan ijodiy qiyofasini ajratib ko‘rsatadi va uni “folklor ta’siri” tushunchasidan keskin farqlaydi [2.12]. Uning ta’kidlashicha, folklorizm – yozuvchi ongida qayta shakllangan, poetik tizim bilan uyg‘unlashgan hamda matnning ichki estetik qonuniyatlariga moslashgan badiiy tuzilmadir.

Folklorizmning adabiyotdagi namoyon bo‘lishi she’riyat, hikoyachilik, drama, dostonchilik, zamonaviy nasr orqali turlicha shakllanadi. Masalan, Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi ijtimoiy-etnografik folklorizm xalq o‘yinlari, maishiy urf-odatlar va turmush tafsilotlarining tabiiy poetik ko‘rinishiga aylangan bo‘lsa, Erkin Vohidovning aruz va barmoqdagi she’riyati xalqona ritm, ibora va pand-nasihat kabi jihatlarni zamonaviy talqin bilan uyg‘unlashtiradi. Isajon Sulton hikoyalarida esa mifopoetik obrazlar, makon semantikasi va ma’naviy-axloqiy asos folklorizmni yanada murakkab badiiy tizimga aylantiradi.

Mazkur ilmiy maqola folklorizmning o‘zbek adabiyotida o‘rganilish tarixini, nazariy asoslarini va amaliy poetik izchil va keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Tadqiqot B.Sarimsoqov, L.Sharipova, S.Atajanov, D. Hajiyeva, F.Kurbanova hamda S.Mamayusupova izlanishlarini tahlil qilib folklorizmning adabiy jarayonda tutgan o‘rnini kompleks ko‘rinishda yoritishni maqsad qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot folklorizmning o‘zbek adabiyotshunosligida shakllanishi va rivojlanishini nazariy hamda amaliy yo‘nalishlarda umumlashtirishga qaratilgan. Folklor va adabiyot aloqalari tarixiy jarayon sifatida ko‘rilib, B.Sarimsoqov L.Sharipova, D.Hajiyeva va F.Kurbanova, S.Mamayusupova qarashlari o‘zaro qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida tahlil qilindi.

Har bir davrda folklorizmga berilgan ilmiy ta’rif, tasnif va metodlar tarixiy asosda baholandi. Folklorizmning turli shakllari (oddiy, murakkab, nutqiy-uslubiy, kompozitsion, etnografik, mifopoetik) o‘zbek adabiyotidagi misollar asosida qayta tasniflandi. B.Sarimsoqov va L.Sharipovanning tipologiyalari asosiy model sifatida olindi.

D.Hajiyeva va F.Kurbanova, S.Mamayusupovanning kuzatuvlarida folklor unsurlarining obraz yaratish, syujet qurilishiga ta’sir, xalqona nutqni shakllantirish, ritm va ohang tizimidagi roli lingvopoetik yondashuvlar asosida qayta talqin qilindi.

Ijodkor shaxsiyati, zamon ruhi, milliy tafakkur, tarixiy sharoit folklor unsurlarining talqinidagi asosiy omillar sifatida kontekstual tahlil qilindi.

Natijalar. Ushbu bo‘lim folklorizmning o‘zbek adabiyotshunosligida shakllangan konsepsiyalarini, yirik ilmiy maktablararo bog‘liqliklarni va turli tadqiqotchilarning amaliy natijalarini izchil tizimlashtiradi. Folklorizmning nazariy asoslari Sarimsoqov va Sharipova izlanishlarida boshlangan bo‘lsa, keyingi nufuzli tadqiqotlar buni turli janrlar va badiiy maktablar misolida boyitdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, folklorizm o‘zbek adabiyotida murakkab, ko‘p qirrali badiiy-estetik hodisa sifatida shakllangan.

Bahodir Sarimsoqov folklorizmning o‘zbek adabiyotshunosligida mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllanishiga asos solgan olim sifatida e‘tirof etiladi. Uning izlanishlarida uch asosiy natija yaqqol ko‘rinadi:

1. Terminologik aniqlik. B.Sarimsoqov folklorizmni: “xalq og‘zaki ijodi unsurlarining biror ijodkor asariga biror maqsad bilan muayyan bir “ishlov” berilgan holda kiritilishi deb belgilab, uni folklor ta’siri yoki folklor an’analaridan keskin ajratadi [1. 349]. Bu aniqlik keyingi tadqiqotlarda nazariy asos sifatida qabul qilindi.

2. Folklorizm va folklorlashtirish farqlari. B.Sarimsoqov folklorizm folklordan adabiyotga o‘tish, folklorlashtirish esa adabiyotdan xalq og‘zaki ijodiga o‘tish ekanini aniq ilmiy mezon sifatida belgilaydi.

3. Tipologik modelning yaratilishi. Sarimsoqovning tasnifidagi eng muhim qadam folklorizmni quyidagi ko‘rinishlarda ajratishidir:

- oddiy folklorizm
- murakkab folklorizm (analitik, sintezlashgan, stilizatsion)

Bu tipologiya keyingi barcha tadqiqotlarning asosiy nazariy sxemasiga aylandi.

Laylo Sharipova folklorizmni estetik hodisa sifatida chuqur o‘rgangan olim sifatida taniladi. Uning ilmiy xulosalari keng qamrovli bo‘lib, zamonaviy folklorizmshunoslikning metodologik asosini tashkil etadi. L.Sharipova folklorizmni B.Sarimsoqov(ikkinchi jonlanish) fikrlari asosida: “Folklor ta’sirida yozma adabiyotga folklor namunalari xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishi, qayta talqin etilishi – deb izohlaydi [2.13]. Bu yondashuv folklorizmni “folklor izi” emas, balki butun poetik tizimning bir qismi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Shuningdek, folklor unsurlarining ritm, ohang, takror va sintaktik qurilishdagi estetik vazifalarini alohida e‘tirof etadi. Kompozitsion folklorizm tushunchasini faol ilmiy muomalaga olib kirib, adabiyotshunoslikda yangi metodik turtki berdi. Bundan tashqari A.A. Gorelov tasnifi asosida “ijtimoiy–etnografik folklorizm” termini o‘zbek adabiyotshunosligiga kiritildi. Bu konsepsiya urf-odatlar, o‘yinlar, marosimlar, maishiy tafsilotlar matndagi poetik funksiyasini tahlil qilishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Saodat Mamayusupova Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida folklorizmning hayotiy, tabiiy, maishiy badiiy ko‘rinishlarini o‘rgandi [6]. Xalq o‘yinlari va udumlar, xususan “Chillak”, “Quloqcho‘zma”, “Qoziq uchdi” kabi o‘yinlarning milliy kolorit yaratish, syujetni harakatlantirish va qahramon xarakterini ochish kabi badiiy vazifalar bajarishini asosladi. Qahramon nutqidagi qarg‘ish, olqish, maqollar va xalqona iboralarning ruhiy holatni ifodalashdagi o‘rni tahlil qildi. Natijada folklorizm hikoya poetikasining badiiy mexanizmlaridan biri sifatida isbotlandi.

S. Atajanov tadqiqotida Erkin Samandar lirikasida qo‘llangan folklorizmning barcha turlari, xususan, oddiy folklorizmlarning badiiyatni ta‘minlashdagi o‘rni ochib berildi. Adibning maqol, matal, xalqona iboralar, qarg‘ish va olqishlar shuningdek, analitik, stilizatsion va sintezlashgan folklorizmlardan foydalanish mahorati misollar asosida dalillandi [3].

Dilfuza Hagiyeva Erkin Vohidov ijodida folklorizmning ritmik, struktural va mazmuniy qatlamlarini tahlil qilib quyidagilarni aniqladi:

- E.Vohidov xalq qo‘shiqlari intonatsiyasi, maqol-hikmatlar ohangi, milliy ritmni aruz poetikasida uyg‘unlashtirgan.

- “Oltin devor”da: pand-nasihat, kulgi, xalqona iqtiboslar dramatik kompozitsiyaning tayanchiga aylangan.

Barmoq vaznidagi she‘rlarda: xalq iboralari, frazeologik qatlam, matal va iboralar tabiiy poetik jilo bilan namoyon bo‘ladi. E. Vohidov folklorizmi – mumtoz lirika bilan xalqona badiiyatning zamonaviy sintezi sifatida baholangan[4].

F. Kurbanova Isajon Sulton hikoyalaridagi folklor unsurlarining –mifologema, makon semantikasi, marosim timsollari va tasavvufiy ishoratlarning – o‘zaro uyg‘unlashuvini o‘rgangan hamda ular asosida mazkur asarlar murakkab poetik tizimga ega ekanini aniqlagan [5]. Safar, sinov, tush va ziyorat motivlari syujetni harakatlantirishi, qahramonning ruhiyatini ochib berishi va badiiy semantikani chuqurlashtirishi tadqiqotda alohida asoslab berilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi “Xazinabon”, “Qo‘riqchi”, “Avliyo” kabi hikoyalarda uchraydigan avliyo, oq ilon, baliq, dev-pari singari arxetip va mifologemalarning o‘zbek mifopoetik tafakkurining yozma talqiniga aylanganini ko‘rsatgan hamda maqol, matal, duo va qarg‘ishlarning xarakter psixologiyasini ochish, milliylikni kuchaytirish va matn semantikasini boyitishdagi ahamiyati asoslab bergan.

Tadqiqot natijalari quyidagicha:

1. Folklorizm o‘zbek adabiyotshunosligida nazariy kategoriya sifatida to‘liq shakllangan.
2. Sharipova va Sarimsoqov bu kategoriya uchun ilmiy asos va terminologik aniqlik yaratgan.

3. Folklorizmning amaliy ko‘rinishlari turli janrlarda (hikoya, she‘riyat, drama, zamonaviy nasr) boyigan.
4. Mifopoetik, etnografik, kompozitsion folklorizm kabi yangi yondashuvlar paydo bo‘lgan.
5. Zamonaviy adabiy jarayon folklorizmni milliy o‘zlikni ifodalovchi asosiy estetik mexanizm sifatida namoyon qilmoqda.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, folklorizm o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan milliy badiiy tafakkurning faol yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Turli tadqiqotchilar – B.Sarimsoqovdan tortib S. Mamayusupovagacha – folklor unsurlarning yozma adabiyotga ko‘chish jarayonini turli jihatdan talqin qilsalar-da, ularning qarashlari bir nuqtada birlashadi: folklorizm hech qachon sodda “ko‘chirish” emas, balki ijodiy qayta tug‘ilishdir. Muhokama bo‘limi ana shu yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi va farqli jihatlarini tahlil qiladi, folklorizmning badiiy tizim sifatidagi mukammal mohiyatini yoritadi.

Sarimsoqovning ilmiy qarashlari folklorizmni nazariy kategoriya sifatida mustahkamladi. Uning ta‘kidlashicha, folklor unsuri yozma asarga aynan “qayta yaratilgan” holda kiradi. Bu yondashuv ikki muhim nazariy farazga asos bo‘ladi:

1. Folkloriy unsur matnda tayyor holatda yashamaydi. Yozuvchi uni idrok etadi, qayta talqin qiladi, badiiy dunyoqarashiga moslab o‘zgartiradi.

Bu badiiy mexanizm matnga yangi mazmun, yangi semantik talqin, yangi vazifaviy o‘rin beradi.

2. Folklorizm – adabiyotning ichki energiyasi. Folkloriy unsurlar syujetni harakatlantiradi, qahramon xarakterini chuqurlashtiradi, milliy ruhni uyg‘otadi hamda matnning ma‘no qirralarini kengaytiradi.

Demak, folklorizm adabiyotning faqat mazmun emas, balki struktur, poetik, estetik tamoyilidir.

L. Sharipovanning qarashlari muhokama bo‘limida markaziy o‘rinni egallaydi, chunki folklorizm poetik tizimning bir butun qismiga aylanadi. L.Sharipova folklor unsurlarini matnda ritmik, kompozitsion, sintaktik, obraz yaratish tamoyillarini belgilovchi o‘zak deb biladi. Bu yondashuv folklorizmni butun badiiy tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Marosim, o‘yin va udumlar matnda shunchaki tasvir emas, balki voqelikning milliy modeli, etnomadaniy xotira va xalq tafakkuri mahsuli sifatida talqin qilinib, Sharipovanning yondashuvi folklorizmni ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etuvchi xodisa sifatida namoyon etadi.

S. Mamayusupova Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o‘rganar ekan, xalq o‘yinlari, qarg‘ishlar, duo-olqishlar va maishiy tafsilotlarning matnda tabiiy tarzda qo‘llanishi folklorizmni hayotiy va organik hodisa sifatida namoyon etishini aniqlaydi. Shuningdek, xalqona unsurlar

qahramon ruhiyatidagi ichki ziddiyat, ruhiy o'zgarishlarni ifodalashda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qilishi folklorizmning keng vazifaviy imkoniyatlarini ko'rsatadi.

S. Atajanov Erkin Samandar ijodida folklorizmning oddiy, stilizatsion va sintezlashgan ko'rinishlarini o'rganib, ularning badiiyatni ta'minlashdagi o'rnini asoslab berdi. Tadqiqotda adibning maqol, matal, xalqona iboralar, qarg'ish-olqishlar va fonopoetik vositalardan mohirona foydalanishi tahlil qilindi hamda bu unsurlar she'riy va nasriy matnlarda badiiy ifodani kuchaytiruvchi vosita sifatida baholandi. Shuningdek, "Sulton Jaloliddin", "Qiron g'ildiragi", "Quyun izlari yoki Ogahiy" kabi asarlarda obraz va janr stilizatsiyasi, mifologik timsollarning milliy xarakterni ochishdagi ahamiyati ko'rsatilib, analitik folklorizmlarning kompozitsiyadagi vazifasi aniqlangan.

D. Hajiyeva Erkin Vohidov ijodini o'rganar ekan, aruz va barmoq tizimida qo'llangan folklor ritmi she'ning musiqiy ohangini va nafosatini belgilovchi muhim poetik kuchga aylanishini ko'rsatadi. "Oltin devor" dramasi tahlilida esa xalqona kulgi, hikmatlar va iqtiboslar kompozitsiyani mustahkamlashi, dramatik konfliktni chuqurlashtirishi va g'oyaviy markazni belgilashi aniqlanib, folklorizmning nasrda emas, balki dramatik janrda ham yuqori vazifaviy imkoniyatga ega ekan asoslab beriladi.

F. Kurbanova tadqiqotida Isajon Sulton hikoyalarida folklor unsurlari mifologik qatlam, ruhiy-psixologik vazifa, kompozitsion tugun va ramziy semantika sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Safar, sinov, tush va o'lim-tirilish motivlari qahramonning ruhiy o'zgarishini harakatlantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Eram bog'i, tog', daryo va choyxona kabi makonlarning oddiy tasvir emas, balki ruhiy sinov maydoni, xotira o'chog'i sifatida talqin etilishi ularning mifopoetik mohiyatini ko'rsatadi. Duo, olqish va qarg'ishlarning esa qahramon taqdiriga ma'no jihatdan ta'sir qiluvchi xalqona nutq vositasi sifatida ishlashi ta'kidlanadi.

Folklorizmning ilmiy va adabiy jarayondagi o'rnini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Sarimsoqov, Sharipova va Mamayusupova izlanishlarida u nazariy tushunchadan poetik tizimga, keyinchalik esa hayotiy obraz darajasiga qadar bosqichma-bosqich chuqurlashgan. Sharipova, Hajiyeva va Kurbanova tadqiqotlarida esa folklorizm struktur-estetik hodisadan ritmik-kompozitsion mexanizmga va mifopoetik-semiotik tizimga aylangan. Bu jarayon folklorizmshunoslikning o'zbek adabiyotida izchil va mustahkam ilmiy yo'nalish sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, umumiy tahlillar folklorizmning o'zbek adabiyotida milliy ruhiyatni ifodalash, tarixiy xotirani shakllantirish, xalq tafakkuri izchilligini saqlash va zamonaviylik bilan an'anani bog'lashda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Folklorizm adabiy jarayonni milliylashtiradi, badiiy tafakkurni kengaytiradi, xalqona ruhni zamonaviy shaklda tiklaydi. Natijada u mif, ramz, obraz,

marosim va udumlarni yangi badiiy talqinlarda jonlantiradi hamda shoir va yozuvchilarni xalqning tajribasi bilan bog'lovchi asosiy badiiy tamoyilga aylanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotida folklorizmning o'rganilish jarayonini nazariy, metodologik va poetik-amaliy jihatdan keng qamrovda yoritdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, folklorizm o'zbek adabiyotshunosligida yakka bir adabiy hodisa emas, balki milliy badiiy tafakkurning uzluksiz harakatini, xalq xotirasi va zamonaviy adabiy tafakkurning sintezini aks ettiruvchi yirik badiiy kategoriya sifatida shakllangan. Bu hodisaning mohiyati Sarimsoqov tomonidan nazariy jihatdan asoslangan, Sharipova tomonidan poetik tizim sifatida nazariy jihatdan mustahkamlangan, keyingi tadqiqotchilar tomonidan esa janrlararo tahlil bilan yanada boyitilgan.

Tadqiqotdan kelib chiqib folklorizm o'zbek adabiyotida turli bosqichlarda bajargan vazifalari bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- Milliy badiiyatning genetik ildizlarini saqlagan va uzluksiz davom ettirgan.

Xalq og'zaki ijodi unsurlari har bir davr adabiyotida milliylikning asosiy estetik ko'rsatkichiga aylangan.

- Adabiy jarayonning rivojida integrativ kuch bo'lgan.

Folklor va zamonaviy adabiy tafakkurning sintezlanishi yangi poetik shakllar, ramzlar, ritm va struktural yondashuvlarni yuzaga keltirgan.

- Shaxs psixologiyasini yoritishning qudratli vositasiga aylangan.

Xalqona nutq, duo, olqish, qarg'ish, o'yinlar va marosimlar qahramon xarakterini ochishda muhim vosita bo'lgan

- Zamonaviy nasr va she'riyatda mifopoetik qatlamni boyitgan.

Arxetiplar, mifologemalar, makon semantikasi badiiy tafakkurning yangi tushuncha va ramzlar bilan to'lishiga xizmat qilgan.

- Adabiyotning ijtimoiy, estetik va axloqiy funksiyalarini kengaytirgan.

Folklorizm orqali milliy tarbiya, ruhiy poklanish, tarixiy xotirani jonlantirish kabi tamoyillar adabiy jarayonda faol namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир. // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тулабоев ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
2. Шарипова Л. Ўзбек шеърларида фольклоризм (XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеърлари асосида). – Тошкент: Фан, 2011.
3. Атажанов С. Эркин Самандарнинг фольклоризмлардан фойдаланиш маҳорати: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Урганч, 2022.

4. Hajiyeva D. Erkin Vohidovning folklorizmdan foydalanish mahorati: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya. – Urganch, 2023.
5. Kurbanova F. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona, 2023.
6. Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o'rni: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Jizzax, 2024.